

MUTAFAKKIRLARNING OILADA BOSHQARUV VA FARZAND TARBIYASIDAGI PSIXOLOGIK QARASHLARI

¹Axmedova Nasiba Achilovna, katta o‘qituvchisi

²Arakulova Mohinur, 2-bosqich magistr
Jizzax davlat pedagogika universiteti

shirin.kamolova.67@mail.ru

Annotatsiya: Ushbi maqola oilani boshqarish uslubi, shuningdek, oilaviy munosabatlar farzandlarning aqliy, ruhiy kamolotini ta’minlash, mutafakkirlarning oilada boshqaruv va farzand tarbiyasi xususida qarashlari o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: Oila, shaxs, xulq-atvor, iroda, xarakter, tarbiya, aqliy qobiliyat.

Oilada shaxs kamoloti uchun muhim bo‘lgan xulq-atvor, iroda, xarakter va dunyoqarash kabi shaxs sifatleri shakllanadi. Oilada ota-onaning bilim darajasi, ma’lumoti, oilani boshqarish uslubi, shuningdek, oilaviy munosabatlar farzandlarning aqliy, ruhiy kamolotini ta’minlash bilan birga, ota-onalarda o‘ziga xos faollikni ham shakllantiradi.

Oilada ota-ona va farzandlarning o‘zaro ta’siri tufayli ularning qiziqish hamda faoliyatlari doirasi kengayadi, o‘zaro aloqalari mazmunan boyib boradi. Bunday oilalarda farzandlarning real hayot mohiyatini chuqurroq anglashi, farzandlar kamoloti, kelajagi timsolida o‘z umri davomiyligini ko‘rish holati kuzatiladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmon izlanishlarda uning paydo bo‘lishi, mavjudligiga asos bo‘luvchi omillarni va tugashi bilan bog‘liq holatlarga e’tiborni qaratadi.

Shuningdek, ota-onadan farzandlarida aniq yo‘nalishlar bo‘yicha qiziqishni uyg‘otish, uni rivojlantirib borish talab etiladi. Ota-ona yoki oilaning boshqa a’zolarining dunyoqarashi, ehtiyoj va qiziqishlari doirasi hamda ular tomonidan ko‘rsatilayotgan namuna farzandlar aqliy taraqqiyotida muhim tarbiyaviy omil bo‘lib xizmat qiladi.

Asosan ota-onalar oila muhitida bolaning aqliy jihatidan tarbiyalab borishda konstruktorlik o‘yinlari jumladan, kubiklar yordamida uylar qurish, kesmalar asosida fano, tasvir hosil qilish kabilar, bolalarning fikr doirasini kengaytirishga yordam beruvchi sport o‘yinlari shaxmat, shashkani tashkil etish, turli mavzulardagi krossvord, chaynvord va rebus topishmoqlarini hal qilish, teatr, muzey va ko‘rgazmalarga tashrif buyurish hamda ilm-fan, texnika va texnologiya taraqqiyoti yuzasidan suhbatlarning uyushtirishi ijobiy natija berishi shubhasiz. Shu bilan birga oila boshqaruvi ham bolalarning aqliy rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Ammo, bu omil har doim ham inobatga olinmasligi ayanchli oqibatlariga olib keladi.

Bolalarning aqliy rivojlanishi oila boshqaruvida demokratik va aralash uslub ustun bo‘lganda ancha optimal rivojlanish xususiyatiga ega bo‘ladi. Mazkur muammoning kam o‘rganilganligi, hamda bolalarning aqliy rivojlanishi muhim ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lganligi sababli Oila boshqaruvining farzand aqliy

qobiliyati shakllanishiga ta'sirining ijtimoiy-psixologik talqini mavzusi dolzarb hisoblanadi va albatta mazkur yo'nalish bo'yicha xulosalar va aniq tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Oila boshqaruvining farzand aqliy qobiliyati shakllanishiga ta'sirining ijtimoiy-psixologik jihatlari, Optimal boshqaruv uslubini tanlash muammosi quyidagi olimlarning ishlarida aks ettirilgan: Axmetzyanova M.P. [1], Baykovskaya E.A. [2], Gergiev I.Ye., Alborova V.V. [3], Jilina V.A. [4], Kuzmina O.V., Korniltseva E.G., Yushkova T.A. [5], Morozov V.A. [6], Noskova O.G. [7], Sevatsyanova O.V., Baxtaliev A.S. [8], Sulaymonova K.R. [9], Toropkina A.N. [10], Tyagaeva D.L., Zapletina N.I. [11] va boshqalar [12-14]. Ota-onalik ustanovkalari va ularning farzand tarbiyalash uslublari muammosi rossiyalik qator izlanuvchilarning asarlarida qayd etilgan.

Oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlar bir qarashda emotsional hissiyotlarga asoslanganga o'xshasa-da, aslida bir insonning ikkinchisiga ko'ngil qo'yishi, tanlashi, birgalikda umr kechirishi jarayoni ijtimoiy-psixologik qonuniyatlarga to'la bo'ysunadi.

Olimlar oila borasida o'tkaziladigan tadqiqotlar va unda qo'llaniladigan usullarning noyobligini ta'kidlashib, oila tadqiqotlarida rioya etilishi zarur bo'lgan odob normalari haqida ham fikr yuritganlar. Shaxsda dunyoqarash izchil, tizimli, uzluksiz hamda maqsadga muvofiq tashkil etilayotgan ta'lim-tarbiyaning yo'lga qo'yilishi, uning turli yo'nalish va mazmundagi ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etishi, shuningdek, o'z-o'zini tarbiyalab borishi natijasida shakllanadi.

Abu Nasr Forobiyning ijodiy faoliyatida bola tarbiyasi chetdan qolgan emas. Forobiy jamiyatda yashayotgan har bir kishini yoshligidan boshlab biror kasbni o'rganish uchun harakat qilishi va kelajakda shu kasb orqali jamiyatga foyda keltirishi kerak, deb biladi. Har bir kasbni egallash jarayonida muayyan harakatlar, takrorlash, mashq qilish yo'li bilan ko'zlangan maqsadga erishish mumkinligini aytib, "Axloqiy fazilatlar va razilliklar, axloqiy harakatlarni, ishlarning bir necha marta takrorlanishida va uzoq davom etishi jarayonida vujudga keladi va mustahkamlanadi.

Agar qilinayotgan ish xayrli bo'lsa, undan fazilat kelib chiqadi, agar yomon bo'lsa, unda razillik kelib chiqadi", - deydi. Forobiy bolalarni yoshligidan boshlab mehnat va mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash hamdao'ziga yoqqan ish bilan mashg'ul bo'lishi, asta-sekino'zi qiziqqan biron bir kasbni egallashi zarurligi hamda barcha hunarlarni bir to'la egallab bo'lmasligini ifodalab, shunday deydi: "Har bir kishiga biriktirilgan ma'lum bir ish bo'lishi kerak, toki u kishio'ziga biriktirilgan ishni kechiktirmasdano'z vaqtida bajarsin".

Bundan xulosa qilish mumkinki, bola rivojlanishi uchun eng qulay ota-ona uslubi, ota-onaning demokratik uslubidir. Oiladagi tarbiya (muloqot) uslubi - bu bolaning rivojlanishi va uni ijtimoiy hayotga tayyorlash uchun sharoitlarni ta'minlaydigan shaxsiy munosabatlar, tushunchalar, tamoyillar, qadriyat yo'nalishlari majmui.

Asosan, ota-onaning bolaga ta'sirining utsun turi ko'rib chiqiladi, lekin buni hisobga olish kerak: oila a'zolaridan qaysi biri utsunlik qiladi va u qanday hukmronlik qiladi, shuningdek, har qanday oila a'zosining bolaga ta'sirining

ahamiyati. Biroq, ko'pincha otaonalar o'rtasidagi munosabatlarning uslublariga qarab shakllanadigan bolaning bir xil harakatlariga nisbatan turmush o'rtoqlarning kelishmovchiligini kuzatish mumkin. Yana ba'zi yo'nalishlarda oila boshqaruv uslublarining 6 ta asosiy turini ajratib ko'rsatish odatiy holga aylangan: avtoritar, tajovuzkor, demokratik, xaotik, uzoq va haddan tashqari himoya.

Ushbu uslublarning har biri o'ziga xos xususiyatlarga ega va bolaning psixikasi va shaxsiy rivojlanishiga turli yo'llar bilan ta'sir qiladi. Aytib o'tilganidek, avtoritar tarbiya uslubi bilan ota-onalar bolaning tashabbusini bostiradi, uning harakatlarini qat'iy boshqaradi va nazorat qiladi.

Ta'lim berishda ular eng kichik nojo'ya xatti-harakatlar, majburlash, baqirish, taqiqlash uchun jismoniy jazodan foydalanadilar. Ota-onalar bolalarning fikriga e'tibor bermasdan va murosaga kelish imkoniyatini tan olmasdan, ko'rsatmalar va buyruqlar berishadi. Bunday oilalarda itoatkorlik, hurmat va urf-odatlariga sodiqlik yuksak qadrlanadi. Qoidalar muhokama qilinmaydi. Ota-onalar har doim to'g'ri ekanligiga ishonishadi va itoatsizlik har doim jazolanadi, ko'pincha jismonan.

Ota-onalar bolaning mustaqilligini cheklaydilar, ularning talablarini qandaydir tarzda oqlashni zarur deb hisoblamaydilar, ularga qat'iy nazorat bilan hamroh bo'lishadi. Bolalar ota-ona mehridan, mehridan, g'amxo'rlikidan, hamdardligidan mahrum. Bunday ota-onalar faqat bolaning itoatkor va ijrochi bo'lib o'sishi haqida qayg'uradilar.

Ota-onalar kichik yoshdagi o'quvchilarning uy vazifalarini bajarishlarini qat'iy nazorat qiladilar, ular yaqin atrofda turishadi va bolani mustaqil harakat qilishga undash uchun bosim o'tkazadilar. O'zini himoya qilishda bolalar turli xil hiyla-nayranglardan foydalanadilar, masalan: yig'lash, o'zlarining nochorligini ko'rsatish. Bunday chora-tadbirlar natijasida bolalarda o'rganishga bo'lgan ishtiyoq yo'qoladi, ular o'qituvchining tushuntirishlari paytida yoki mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rishda e'tiborlarini zo'rg'a jamlaydilar. Onalar yoshi kattaroq o'smirlarga nisbatan ko'proq "ruxsat beruvchi" xattiharakatlarga moyil bo'lsa, avtoritar otalar tanlangan ota-ona hokimiyatiga qat'iy rioya qiladilar.

Ta'lim-tarbiya tarixiga nazar tashlar ekanmiz, dastlabki xalq og'zaki ijodi namunalaridan tortib, buyuk mutafakkirlar ijodigacha yoshlarni mehnatsevar bo'lib yetishishi, kasb-hunaro'rganish, mehnat ahlini hurmat qilish hamda mehnat insonni ulug'lash masalalariga alohida e'tibor berilganligiga guvoh bo'lamiz. Buni biz turli davrlarda yaratilgan ta'limiy-axloqiy asarlar va xalq og'zaki ijodi namunalari topishmoq, xalq qo'shiqlari, masal, maqol, ertak va dostonlarda mehnat va kasb-hunar odobi, axloqi va qoidalarinio'zlashtirish muhim hayotiy zaruriyat ekanligi ta'kidlanadi.

Bundan tashqari «Avesto», Kaykovusning «Qobusnoma», Abu Nasr Forobiyning «Fozil odamlar shahri», Abu Rayhon Beruniyning «Geodeziya», «Minerologiya», Mahmud Qoshg'ariyning «Devonu lug'atit turk», Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig», Alisher Navoiyning bir qator asarlari va shu kabi ma'rifiy meros namunalarida mehnatsevarlik, kasb-hunarning ahamiyati haqida muhim fikrlar bayon etilgan. Bular dastlabki xalq og'zaki ijodi namunalaridagi xalq eposlari, ertak, maqol va topishmoqlardan boshlangan.

Alisher Navoiyning haqiqiy inson uchun eng yaxshi fazilatlardan biri

mehnatsevarlik deb ko'rsatadi. U «Hayrat-ul abrор»ning beshinchi maqolatida kishilarning saxovatiga ko'z tikishdan ko'rao'z qo'li bilan hayot kechirish ulug'roq va oliyjanobroq ekanligini «Hotam Toyi» hikoyatida keltiradi.

Hotam Toyi bir kuni qo'y-qo'zilar so'ydirib, xalqqa katta ziyofat beradi. So'ng biroz dam olish uchun dalaga chiqadi. Unga yelkasidao'tin ko'tarib kelayotgan bir chol uchraydi. Hotam Toyi unga «Dashtda yurib bexabar qolgandirsan, tashla bu og'ir yukni, Hotam uyiga borib ziyofatida izzat ko'rgil», - deydi. Shunda chol kulib: «Ey, oyog'iga hirs band solgan, g'ayrat vodiysiga qadam urmagan kishi, sen ham bu tikan mehnatini chekkin va Hotamning minnatidan qutulgin», - deb javob qiladi. Hotam Toyi cholning bu so'zlariga tan beradi va halol mehnat bilan kun kechirishi uning himmatidan baland ekanligini anglaydi.

Alisher Navoiy reja bilan, aql bilan halol qilishni maslahat beradi, mehnat bilan oila, yurt obod bo'lishini aytadi. Navoiy mehnatsiz rohat bo'lmasligini shunday ta'riflaydi: Mehnat aro har kimki, tahammul yo'q anga, Tarvijga mutlaqo taxayyul anga. (Kimki mehnatga chidamsiz bo'lsa, ishining rivoj topishini hayolga ham keltirib bo'lmaydi.) Alisher Navoiy "Hotami Toyi" hikoyasida halol mehnat bilan kun kechirishni birovning minnat bilan bergan har qanday boyligidan afzal ko'radi.

Abu Ali ibn Sinoo'z asarlarida kishilarni halol mehnat qilishga hamda mehnatning hayot uchun eng zarur omil ekanligini ta'kidlaydi. "Tadbiri manozil" asarida barcha jamiyat a'zolarini dehqonchilk, hunarmandchilk, chorvachilik bilan shug'ullanib xalqqa foyda keltirishlari kerakligini uqtiradi.

Ibn Sinoning fikricha, mehnatsiz hayot kechirish kishini jismoniy va ruhiy tomondan ezadi. Bunday hayot kechirish yomon oqibatlariga olib kelishini tushuntirib, ota-onalarningo'z bolalariga yoshligidan boshlab mehnat tarbiyasini berish zarurligini aytadi. Uning fikricha, bolaga yoshligidan boshlab ma'lum bir kasbgao'rgatish lozim. Chunki bola kasb-hunarni ma'lum darajadao'zlashtirib bo'lgandan so'ng unio'sha paytlardan boshlab, o'z kasb-hunaridan foydalanishga, ya'ni halol mehnat bilan mustaqil hayot kechirishgao'rgatish kerak.

Abdulla Avloniy "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida mehnat insonni bezaydigan muhim sifat ekanligi, yalqovlik va dangasalik esa insonga mos xususiyat emasligini alohida ta'kidlabo'tadi. U mehnatni yaxshi yoki yomon bo'lmasligi va bolalarni har bir ishni bajarishgao'rgatish kerakligi bu esa bolalarni yuksak kamolotga olib chiqishga va saodatga erishishga yaqindan ko'mak berishini ta'kidlaydi. Kasb-hunarni yaxshi yoki yomon bo'lmasligi va bolalarni yoshligidan boshlab kasb-hunargao'rganishga chorlaydi: "ushbu ko'mirchilik, bu temirchilk manga munosib ish emas. deb dangasalik qilib, ishsiz yursa, zo'r ayb, g'ayratsizlikdir". Abdulla Avloniy bolalarni mehnatgao'rgatish va mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashda hayotiy misollar keltirish bilan hayvonlar va hashoratlar misolidagi hikmatlardan foydalangan. Adib bolalarni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashda oilada, ota-onalar yordamidan so'ng maktablardagi ta'lim-tarbiya jarayonlarida amalga oshirishni ma'qullaydi.

Buyuk mutafakkirlamizning mehnat tarbiyasi xususidagi fikrlari bugungi kunda ham muhim ahamiyat kasb etib, bolalarni mehnatsevar qilib tarbiyalashda vosita bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Alisher Navoiy. Xamsa. -Toshkent, Adabiyot va san'at nashriyoti, - 70-71-betlar.
2. Abdulla Avloniy “Turkiy guliston yoxud axloq”. Yoshlar nashriyot uyi. Toshkent. 2019-yil 75-bet.
3. V.Karimova, Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot. Toshkent 1991.
4. Kamolova, S., & Amanxonova, Y. (2022). O‘quvchilar tafakkur jarayonlarini shakllantirishda pedagogik texnologiyalarning ahamiyati. Jurnal Pedagogiki i psixologii v sovremennom obrazovanii, 2(6).
5. Kamolova, S., & Maxmudova, A. (2023). Oliy ta’lim muassasalarida pedagogik kadrlarni tayyorlashning psixologik jihatlari. Jurnal Pedagogiki i psixologii v sovremennom obrazovanii, 3(1).
6. Yaxshiyeva, M. Sh., Kamolova, Sh., Eshonkulov, E. S., Jumartova, U. U., & Urazoliyev, X. A. (2015). Formirovaniye nauchnogo mirovozzreniya studentov. In Aktualniye zadachi pedagogiki (pp. 184-186).